



PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AMALIYOTGA TADBIQI.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi (2- oliy) 1-24 gruh talabasi

Tojiyeva Dilafruz

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik kompetentlikni shakllantirishda pedagogik dasturiy vositalarning ahamiyati yoritilgan. Raqamli ta'lim muhitida elektron resurslar va onlayn platformalar orqali o'qituvchining kasbiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik kompetentlik, pedagogik dasturiy vositalar, raqamli ta'lim, elektron resurslar, masofaviy ta'lim, onlayn platformalar, innovatsion ta'lim, axborot-kommunikativ texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение педагогических программных средств в формировании педагогической компетентности. Анализируются возможности повышения профессионального потенциала учителя в цифровой образовательной среде с использованием электронных ресурсов и онлайн-платформ.

Ключевые слова: Педагогическая компетентность, педагогические программные средства, цифровое образование, электронные ресурсы, дистанционное обучение, онлайн-платформы, инновационное обучение, информационно-коммуникационные технологии.

KIRISH: Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat bilim berish, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, raqamli muhitda ishlashga, kreativ va innovatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil eta olish talab qilinmoqda. Shu sababli zamonaviy pedagog shaxsida pedagogik



kompetentlikni shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Asosiy qisim: Pedagogik kompetentlik shaxsning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy sifatlari, ijodkorligi, kommunikativ madaniyati va axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatining uyg'unlashgan tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda bu kompetentlikni shakllantirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida pedagogik dasturiy vositalar (PDV) alohida ahamiyat kasb etmoqda. Elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, onlayn baholash tizimlari va interaktiv dasturlar o'qituvchining kasbiy rivojiga kuchli turtki bermoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar deb raqamli texnologiyalar, jumladan, kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vositalarga aytiladi. Bunday vositalar ta'lim jarayonini qo'llabquvvatlash va optimallashtirish maqsadida turli xil dasturiy ta'minotlarni o'z ichiga oladi. Ular o'qituvchilarga ta'lim berish jarayonini qiziqarli, mazmunli va interfaol qilish bilan bir qatorda o'quvchilarni ta'lim olishiga va kontentni oson tushunishiga yordam beradi.

Pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy ta'lim muhitining ajralmas qismi bo'lib, ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani yangi bosqichga olib chiqmoqda. An'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lsa, raqamli ta'lim muhitida u ko'proq yo'naltiruvchi, maslahatchi va jarayon boshqaruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa pedagogning kompetentlik darajasini oshirishni taqozo etadi.

Pedagogik dasturiy vositalarning asosiy vazifasi ta'lim jarayonini interaktiv, individuallashtirilgan va samarali tashkil etishdan iborat. Masalan, elektron darsliklar va multimedia resurslar o'quvchilarning bilimni vizual va eshitish orqali qabul qilishini osonlashtiradi, bu esa bilimning mustahkamroq o'zlashtirilishiga olib keladi. Onlayn platformalar orqali o'qituvchi o'quvchilarning faolligini kuzatishi, ularning bilim darajasini real vaqt rejimida baholashi va tahlil qilishi mumkin.



Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish o'qituvchining metodik kompetentligini sezilarli darajada oshiradi. Chunki bunday vositalar yordamida darslarni loyihalash, interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyati kengayadi. Axborot-kommunikativ kompetentlik esa raqamli platformalarda ishlash, ma'lumotlarni izlash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali shakllanadi. Bu esa pedagogning kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi.

Pedagogik dasturiy vositalar –kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgandasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi. Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

o'rgatuvchi dasturlar –o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi; -test dasturlari –egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi; -mashq qildirgichlar -avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagogik dasturiy vositalar innovatsion kompetentlikni ham rivojlantiradi. Chunki o'qituvchi yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga majbur bo'ladi. Bu esa pedagogni doimiy izlanishga, o'z ustida ishlashga undaydi. Masofaviy ta'lim tizimlari orqali o'qituvchi nafaqat mahalliy, balki xalqaro tajribalarni ham o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yanada faollashtiradi. Onlayn forumlar, videokonferensiyalar, virtual sinflar orqali interaktiv muhit yaratiladi. Bu esa kommunikativ kompetentlikning rivojlanishiga



xizmat qiladi. Shuningdek, baholash tizimlarining avtomatlashtirilishi o'qituvchining vaqtini tejaydi va baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi.

Xulosa:Bugungi raqamli asrda ta'lim tizimi tubdan yangilanayotgan bir paytda, pedagogik dasturiy vositalarning ta'lim jarayonidagi o'rni beqiyos ekanini ko'rish mumkin. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida shuni angladimki, zamonaviy pedagog faqat an'anaviy dars o'tuvchi emas, balki raqamli muhitda samarali ishlay oladigan, yangilikka ochiq, doimiy o'rganishga intiluvchi mutaxassis bo'lishi zarur.

Pedagogik dasturiy vositalar o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda nafaqat texnik yordamchi, balki uning kasbiy rivojini tezlashtiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, onlayn platformalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar orqali darslarning mazmunan boyishi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi oshayotganini kuzatish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining sifati sezilarli darajada yuksalayotganidan dalolat beradi. Agar har bir pedagog pedagogik dasturiy vositalardan to'g'ri va samarali foydalansa, nafaqat o'zining kasbiy salohiyatini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar orqali darslar yanada qiziqarli, interaktiv va zamonaviy bo'ladi. Bu esa o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2019.
2. Jo'rayev R.X. *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent, 2020.
3. Selevko G.K. *Pedagogik texnologiyalar*. – Moskva, 2017.
4. Polat E.S. *Masofaviy ta'lim asoslari*. – Moskva, 2019.
5. UNESCO. *ICT in Education*. – Paris, 2018.
6. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil
7. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil



8. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma T.:O'qituvchi. 2004-yil.
9. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin, and Toxirova Xadicha. "O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA OILANING O'RNI." *Modern education and development* 26.4 (2025): 138-141.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin, and Ergasheva Feruza Boboqulovna. "XALQ PEDAGOGIKASIDA KITOBXONLIK MADANIYATI." *Modern education and development* 26.4 (2025): 127-130.
11. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DUNYO TAMADDUNI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI." *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI* 17.01 (2025): 180-183.
12. QIZI, MAHLIYO ZIYODOVA MURODULLA, SEVINCH CHOREYIVA, and MILINOROV XUSNIDDIN XUSHMATOVICH. "TARBIYA METODLARI KLASSIFIKATSIYASI." *TADQIQOTLAR* 74.2 (2025): 246-251.
13. QIZI, MAHLIYO ZIYODOVA MURODULLA, SEVINCH CHOREYIVA, and MILINOROV XUSNIDDIN XUSHMATOVICH. "YOSHLAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOY-PEDAGOGIK INNOVATIKA." *TADQIQOTLAR* 74.2 (2025): 252-257.
14. Husniddin, Melinorov, Qodirova Musallam, and Eshbo'riyev Sardor. "G'ARB MAMLAKATLARIDA ZAMONAVIY OILAVIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 81.2 (2025): 53-61.
15. Husniddin, Melinorov, Qodirova Musallam, and Eshbo'riyev Sardor. "YOSHLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 81.2 (2025): 70-79.



16. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "IQTIDORLI O 'QUVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI." *SHOKH LIBRARY* 1.10 (2025).
17. Maxmadiyorova, Marjona, and Mohidil To'rayeva. "BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA ULARNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARINI AHAMIYATI." *Академические исследования в современной науке* 4.31 (2025): 84-88.
18. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "ZAMONAVIY OILADA KOMMUNIKATSIYA MADANIYATI VA UNING TARBIYAGA TA'SIRI." *Shokh Articles Library* 1.2 (2025).
19. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 3. No. 5. 2024.
20. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 7 (2024): 305-312.